



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

O'z.KTI

№2– 2025 (3) ISSN: 3060-5024



MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

Tahrir hay'ati raisi

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich

Institut boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tahrir hay'ati a'zolari

Niyazmetov Ikrom Masharipovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas'ul xodimi, tahrir hay'ati raisi o'rinbosari

Sharafutdinov Alisher Ozodovich

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, dotsent

Jalolov Baxtiyor Odilovich

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

Ismailov Isamiddin

yuridik fanlar doktori, professor

Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich

yuridik fanlar doktori, professor

Otajonov Abrorjon Anvarovich

yuridik fanlar doktori, professor

Rajabov Baxtiyor Almaxmatovich

yuridik fanlar doktori, professor

Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich

yuridik fanlar doktori, professor

Safarov Djahongir Ismoilovich

yuridik fanlar doktori, dotsent

Ganiyev Sherzod Alisherovich

yuridik fanlar doktori, dotsent

Ollamov Yarash Yo'ldoshevich

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Azim Shuhrat Obid o'g'li

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Bazarov Farrux Abdugafurovich

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Mirzayev Jahongir Umrzakovich

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Sirliyev Baxtiyor Nazarovich

psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Yernazarov Solijon Yerkinovich

iq'tisod fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yarov Bekmamat Alikulovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, bosh muharrir

MUNDARIJA

KRIMINOLOGIK TAHLIL

Berdialiyev B.E.

Ijtimoiy profilaktikaning kriminogen vaziyatga ta'siriga oid nazariyalar va olimlarning fikrlari 3

Кабулов Р., Буранова Р.

Причины и условия, способствующие совершению преступлений составляющих незаконный оборот наркотических средств, их аналогов или психотропных веществ 11

Исаев С.А.

Пиротехника и её разрушительное воздействие на окружающую среду: путь к экологичной альтернативе 20

Boltayev M.M.

Surxondaryo viloyatida oila-turmush doirasidagi jinoyatlar holatining tahlili 25

Rixsimov K.A.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining sabab va sharoitlari: kriminologik tahlil 36

Алламбергенов И.С.

Кибермошенничество: взаимозависимость метода совершения преступления и характеристик личности преступника 41

KRIMINOLOGIK TADQIQOT

Andrea Domokos, Alokxonov Mukhammadmirzokhan

The importance of modern criminology in combating and preventing crime 49

Niyozova S.S.

Qasddan odam o'ldirishning ijtimoiy xavfliligi va javobgarlik masalasi 55

Kaxarova M.M.

Kibero'g'rilik: zamonaviy xavf, huquqiy tahdid va oldini olish chora-tadbirlari 64

Иканов А.А., Тазетдинов Р.Р.

Психологические аспекты нанесения умышленных тяжких телесных повреждений среди несовершеннолетних 70

A'loxonov M.A.

Zamonaviy kriminologiyada jinoyatchilikni tadqiq etish va uni oldini olish tizimini takomillashtirish 77

O'rinova D.A.

Jinoyatchi ayollar shaxsini o'rganishning kriminologik asoslari 83

Tahririyat manzili:

100187, Toshkent shahri

Mirzo Ulug'bek tumani

Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 243

Tel.: +998 (71) 231-39-77

Elektron pochta: info@uzkti.uz

Website: kti.iiv.uz

© O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti

Jurnal 2024-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669658 raqami bilan ro'yhatga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 12-fevraldagi 367/5-son qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.



Muminova Gulnora Taxirovna

Katta muharrir, dizayn

Rasulova Dildora Abdumalikovna

Texnik dizayn

Original-maket O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik
markazida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to'liq yoki qisman
ko'chirilib bosilganida «O'zbekiston
Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining
«Kriminologik faoliyat» ilmiy-amaliy jurnali»dan
olinganligi ko'rsatilishi shart.

Materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar,
ko'chirmalar, iqtisodiy statistik ma'lumotlar
rostligi va aniqligi uchun muallif javob beradi.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq
qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma taqriz qilinmaydi
va qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi.

Bichimi 60x40 1/8.

Bosma tabag'i 10,8

Adadi 50 nusxa

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya
tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida
chop etilgan.

Bosishga ruxsat etildi 27.06.2025

Buyurtma № 25/28

MUNDARIJA

ILG'OR XORIJIY TAJRIBA

Toshpulatov A.I.

Jinoyatchilikning oldini olishda "neighbourhood watch" dasturining
ahamiyati 87

Nigmatov R.O.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishning institutsional tizimi
(Buyuk Britaniya tajribasi) 96

Ollamov Ya.Y., Radosteva Yu.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning jahon tajribasi 111

Naimov R.X.

Ayrim xorijiy mamlakatlarning profilaktik hisobga olish mexanizmini
qo'llash tajribasi 121

Sharipov J.S.

Xorij mamlakatlarining aholi istiqomat qilidigan hududlarida xavfsiz
muhitni yaratish bo'yicha tajribasi 128

Yernazarov S.Ye., Temirov H.N.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda finlandiya amaliyoti: ishonch asosidagi
ijtimoiy kapital 134

Maxmudov J.X.

Milliy gvardiya tipidagi xorijiy mamlakatlar bo'linmalarining jamoat
tartibini saqlash sohasidagi o'ziga xos tajribasi 138

TADQIQOTCHILAR MINBARI

Torebekov B.I.

Ichki ishlar organlarining davlat hokimiyati vakillik organlari bilan
o'zaro munosabatlariga oid fikr va mulohazalar 145

Qobilov U.M.

Jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini takomillashtirish:
huquqiy-tashkiliy choralar tahlili 150

Akramov X.F.

Emil Dyurkgeymning anomiya nazariyasi haqida 157

Payziyev A.M., Abdulloyev X.G.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi
qonunni yangi tahrirda qabul qilishning o'ziga xos jihatlari, muammo va
yechimlar 161

HUQUQ ILMI DARG'ALARI

Sulaymonova X.S., A'zamxo'jaev A.A., O'razayev Sh.Z. 166

XALQARO HAMKORLIK

"Butun Hindiston sud-tibbiyoti simpoziumi 2025" 168

Xitoy Xalq Respublikasiga tashrif 170

TADBIRLAR

"Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishning dolzarb masalalari" mavzusida
respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 172

ZAMONAVIY KRIMINOLOGIYADA JINOYATCHILIKNI TADQIQ ETISH VA UNI OLDINI OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH



A'loxonov Muxammadmirzoxon Adhamxon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
ilmiy xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy kriminologiyada jinoyatchilikni ilmiy tadqiq etishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishning zarurati hamda jinoyatchilikning oldini olishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlarning zamonaviy kriminologik tadqiqotlar o'tkazishdagi ilg'or tajribalari tahlil qilinib, ularni mamlakatimizda joriy etish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: zamonaviy kriminologiya, raqamli jinoyatchilik, kriminologik tadqiqotlar, innovatsion yondashuv, jinoyatchilikni baholash, ilmiy tahlil, ilmiy prognoz va diagnoz.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И ПРОФИЛАКТИКИ ПРЕСТУПНОСТИ В СОВРЕМЕННОЙ КРИМИНОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье освещается необходимость использования инновационных подходов в научных исследованиях преступности в современной криминологии, а также вопросы использования цифровых технологий в предупреждении преступности. Проанализирован передовой опыт зарубежных стран в проведении современных криминологических исследований и обсуждены вопросы их внедрения в нашей стране.

Ключевые слова: современная криминология, цифровая преступность, криминологические исследования, инновационный подход, оценка преступности, научный анализ, научный прогноз и диагноз.

IMPROVING THE SYSTEM OF CRIME RESEARCH AND PREVENTION IN MODERN CRIMINOLOGY

Abstract. This article highlights the necessity of using innovative approaches in the scientific study of crime in modern criminology and the issues of using digital technologies in crime prevention. Also, the best practices of foreign countries in conducting modern criminological research were analyzed, and issues of their implementation in our country were discussed.

Keywords: modern criminology, digital crime, criminological research, innovative approach, crime assessment, scientific analysis, scientific forecast and diagnosis.

Kriminologiya fani hozirgi kunda ijtimoiy-huquqiy fanlar tizimida eng muhim o'rinlardan birini egallab, jamiyat xavfsizligi, uning barqaror rivojlanishi va fuqarolik huquqining himoyasini ta'minlashda bevosita ilmiy-amaliy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Jinoyatchilik esa nafaqat huquqiy muammo, balki murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, global miqyosda zamonaviy xavf sifatida qaral-

moqda. Ayniqsa, xalqaro maydonda texnologik taraqqiyot, axborot maydonining kengayishi, ijtimoiy adolatsizlik, demografik bosim va ijtimoiy institutlar barqarorligining susayishi natijasida jinoyatchilik tobora yangi shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy jinoyatchilikning raqamli va transmilliy shakllari an'anaviy kriminologik yondashuvlarning samaradorligiga jiddiy chaqiriq

bo'lib xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham hozirgi bosqichda kriminologik tadqiqotlar faqatgina jinoyat sabablari va oqibatlarini o'rganish bilan cheklanmasdan, ularni prognoz qilish, oldini olish va nazorat qilishga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuvlarni talab etmoqda. Bunda sun'iy intellekt, "Big Data" texnologiyalari, kriminometrik modellar, empirik statistik tahlillar va xulq-atvor psixodiagnostikasi kabi zamonaviy vositalardan foydalanish ehtiyoji keskin oshdi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish tizimini isloh qilish borasida salmoqli yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, jinoyatchilik profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilikning takomillashuvi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning zamonaviylashtirilishi ijobiy natijalar bermoqda. Ayniqsa, jinoyatchilikning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va ularni barvaqt bartaraf etish bo'yicha zamonaviy kriminologik tadqiqotlar bosqichmabosqich amalga oshirilayotganligini ham e'tirof etish joiz.

Shu bilan birga, ayrim yo'nalishlarda tizimli muammolar, normativ-huquqiy bo'shliqlar va ilmiy tahlillarning yetishmasligi kuzatilmoqda.

Zamonaviy kriminologik tadqiqotlar kriminologiyaning nazariy va amaliy yondashuvlarini chuqur yoritadi, ayniqsa, zamonaviy metodologiyalarni qamrab oladi. Kriminologik tadqiqotlar metodologiyasi tarixan jinoyatchilikni izohlashning turli nazariy yondashuvlariga asoslanib shakllangan. Klassik (Chezare Bekkaria, Ilermiya Bentam) [1], pozitivistik (Chezare Lombrozo, Enriko Ferri) [2,3] va sotsiologik (Durkheim, Sutherland)[4] maktablar zamonaviy kriminologiyaning nazariy poydevorini tashkil etadi. Bugungi kunda esa bu yondashuvlar yangi – postmodern, interaktiv, texnologik va integratsiyalashgan shakllarda rivojlanmoqda.

Zamonaviy kriminologik tadqiqotlar kompleks, multidisipliner va innovatsion yo'nalishlarda olib boriladi. Ilmiy tahlillar faqat huquqiy va ijtimoiy sabablarga emas, balki iqtisodiy, psixologik, demografik va texnologik omillarga ham e'tibor qaratadi. Masalan, kriminologik prognostik

modellar yordamida jinoyatlarning sodir bo'lish ehtimoli aniqlanadi, sun'iy intellekt asosidagi algoritmlar esa jinoyatchilikka moyillik darajasini baholash imkonini beradi.

Empirik metodlar kriminologiyada asosiy o'rin egallaydi:

- so'rovnomalar, intervyular, kuzatuv va eksperimentlar orqali ijtimoiy xatti-harakatlar tahlil qilinadi;

- statistik tahlil vositalari orqali jinoyatlar soni, sabablari, hududiy va demografik tavsiflari aniqlanadi;

- zamonaviy dasturiy vositalar (SPSS, R, Python, Tableau)[5] yordamida katta hajmdagi jinoyat ma'lumotlari vizual ko'rinishga keltiriladi.

Normativ-huquqiy tahlil kriminologik tadqiqotlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Profilaktik choralar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, jinoyatchilik statistikasi, xalqaro huquqiy hujjatlar, sud amaliyoti va jinoyat protsessi elementlari tadqiqot asosini tashkil etadi.

Zamonaviy kriminologik yondashuvlar orasida interaktiv kriminologiya, sistemali yondashuv, profilaktik diagnostika modeli, qiyosiy kriminologiya, kiberkriminologiya, psixo-kriminologiya keng qo'llanilmoqda. Masalan, xorijiy davlatlarda kriminal xavf darajasi yuqori bo'lgan hududlar bo'yicha issiq nuqtalar (Hot Spot Mapping) texnologiyasi asosida prognozlar tuziladi.

Shuningdek, kriminologiyada interaktiv model – jinoyatga olib keluvchi har bir ijtimoiy omilni tarmoq sifatida bog'lab, tizimiy yechim topishga xizmat qiladi. Bu model jinoyat sabablari, sharoitlari, jinoyatchining shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy muhit va huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning harakati o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida ham kriminologik tadqiqotlarni zamonaviy bosqichga olib chiqish borasida sezilarli ijobiy siljishlar mavjud. Ayrim kriminologiya bo'yicha darsliklarda jinoyatchilik sabablari, ijtimoiy profilaktika, jinoyatni oldini olishda jamiyat institutlarining o'рни kabi masalalarga zamonaviy yondashuvlar kiritilgan. Biroq, empirik tadqiqotlar sonining yetishmasligi, tahliliy

institutlar faoliyatining tizimlashtirilmagani, hamon an'anaviy yondashuvlarning ustunligi bu sohada o'sish imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga to'stinlik qilmoqda.

Shu bois, jinoyatchilikni zamonaviy kriminologik metodlar orqali chuqur o'rganish – nafaqat ilmiy zarurat, balki jamiyat xavfsizligi, fuqarolik ishonchi va huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun zarur vositadir.

Zamonaviy kriminologiyada jinoyatchilikni samarali o'rganish va uni oldini olish bo'yicha tizimlarni takomillashtirishda xalqaro tajribaning o'zni beqiyosdir. Chunki jinoyatchilik faqat milliy chegara doirasida yuzaga keluvchi hodisa emas, balki global tusga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy-huquqiy muammo hisoblanadi. Xalqaro miqyosda shakllangan ilg'or yondashuvlar, boshqaruv uslublari va tahliliy texnologiyalar jinoyatchilikka qarshi kurashishning samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha xalqaro tajriba O'zbekiston uchun katta ahamiyatga ega. Xususan, Yevropa va Amerika davlatlarida jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatchilarni reabilitatsiya qilish bo'yicha ilg'or tizimlar mavjud. Shu bilan birga, Singapur kabi davlatlarning profilaktik yondashuvlarini o'rganish va ularni milliy tizimiga moslashtirish mumkin.

Misol uchun, Yaponiyada jinoyatchilikning oldini olishda ko'proq ijtimoiy reabilitatsiya tizimi ishlab chiqilgan, bunda jinoyatchilarga ijtimoiy ishlar va psixologik yordam ko'rsatiladi [6]. Shvetsiyada esa jinoyatchilikning oldini olishning samarali metodlari sifatida jamiyatdagi jinoyatlarning oldini olishda fuqaro tashabbuslari faoliyatiga katta ahamiyat beriladi [7]. O'zbekiston sharoitida jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarali tizimini takomillashtirish uchun xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga integratsiyalash muhimdir.

Germaniya jinoyatchilikka qarshi kurash va uni oldini olishda kompleks, tizimli va zamonaviy yondashuvlarga asoslanadi. Bu davlatda kriminologik faoliyat nafaqat jinoyat sodir etilgach boshlangan chora-tadbirlar majmui bilan chek-

lanadi, balki jinoyatchilikni ildizidan bartaraf etishga qaratilgan profilaktik, psixologik va sotsiologik mexanizmlar asosida olib boriladi.

Germaniyada "Polizeiliche Kriminalprävention" (PK) – Jinoyatchilikning oldini olish politsiya bo'linmasi faoliyat yuritadi. Ushbu tuzilma jinoyatchilik statistikasi, jinoyatlar tahlili, xavf darajasi, jinoyat zonalar xaritasi, yoshlar orasida jinoyatchilik sabablari kabi masalalarda yuqori texnologiyalarga asoslangan kriminologik monitoring tizimlarini qo'llaydi.

Ushbu tizim doirasida:

jinoiatlar dinamikasi haqida real vaqtda axborotlar to'planadi;

har bir shahar va federal yer uchun maxsus profilaktik strategiyalar ishlab chiqiladi;

maktab, mahalla va ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlikda "Kriminalprävention vor Ort" (Joylarda jinoyatchilikning oldini olish) dasturlari amalga oshiriladi;

jinoiatlikka moyil yoshlar, ularning psixologik holati, ijtimoiy muhitdagi risk faktorlar monitoring qilinadi [8].

Shuningdek, Germaniyada jinoyatchilik tahliliga sun'iy intellekt tizimlari ham kiritilgan. Masalan, PredPol (Predictive Policing) tizimi orqali jinoyatlarning qayerda, qachon sodir bo'lish ehtimoli prognoz qilinadi. Bu esa politsiya patrullari harakatini real xavf zonalar asosida optimalashtirish imkonini beradi [9].

O'zbekistonda ham jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi modernizatsiya qilinmoqda. Ammo Germaniya tajribasidan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish dolzarb hisoblanadi:

sun'iy intellekt asosida prognozlash tizimlarini joriy qilish – jinoyatchilikni oldindan bashorat qiluvchi tizimlar orqali xavfli hududlar va guruhlar aniqlanadi;

mahalla va maktablar bilan integratsiya – jinoyatchilikka moyil guruhlar bilan ishlashda ijtimoiy xizmatlar, ruhshunoslar va obro'li mahalla yetakchilari jalb qilinadi (Germaniyadagi "Schulsozialarbeit" – maktab ijtimoiy ishlari modeli asosida) [10];

davlat, jamoatchilik va politsiya hamkorligida profilaktika – fuqarolar ishtirokida mahallaviy monitoring tizimi joriy etiladi, jinoyat sodir etilishidan oldin ijtimoiy ogohlantirishlar beriladi.

Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilikning oldini olishda faqat jazoga asoslanmasdan, oldin ogohlantirish, prognozlash va fuqarolik institutlari bilan hamkorlikda ishlashga asoslanmoq lozim. Bu yondashuv O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashni yanada samarali tashkil qilish, ilmiy yondashuvlar asosida boshqarish va huquqiy xavfsizlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Yaponiyada jinoyatchilikning oldini olish tizimi jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlar, fuqarolik intizomi va jamoatchilik ishtirokiga asoslangan. Bu davlatda jinoyatchilik darajasi nisbatan past bo'lib, bunga asosiy sabab — preventiv yondashuv, oilaviy nazorat va psixologik ijtimoiy moslashtirish tizimidir.

Yaponiya modelining o'ziga xos jihatlari:

jinoyat sodir etishga moyil shaxslar bilan erta bosqichda ishlash uchun “hogo-sha” (kuzatuv ostidagi shaxs) dasturi mavjud;

voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish uchun maxsus psixologik konsultatsiya markazlari faoliyat yuritadi;

“Kodomo 110” – bolalarga qarshi zo'ravonlik holatlarini darhol xabar qilish uchun mo'ljallangan ishonch telefon tarmog'i mavjud [11];

maktablarda kriminologik ma'rifat soatlari, ota-onalar bilan “do'stlik kengashlari” o'tkaziladi.

O'zbekiston uchun foydali jihatlar:

jinoyatchilikka moyil bolalar uchun psixologik reabilitatsiya markazlarini tashkil etish;

mahalla, maktab va oilalar o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan monitoring;

“Ijtimoiy psixolog” lavozimini mahallalar miqyosida joriy etish.

AQSH jinoyatchilik muammosi bilan chuqur shug'ullanayotgan davlatlardan biri bo'lib, bu sohada juda ko'p analitik va texnologik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ayniqsa, jinoyatlarning oldini olishda Predictive Policing (bashoratli politsiya) konsepsiyasi keng joriy qilingan [12].

AQSH tajribasidagi asosiy jihatlar:

CompStat, HunchLab, PredPol kabi sun'iy intellektga asoslangan tizimlar jinoyatlarning sodir bo'lish joyini prognoz qiladi.

Maktablar bilan hamkorlikda “School Resource Officer” (maktabda doimiy faoliyat yurituvchi politsiya xodimi) instituti joriy etilgan [13].

Jinoyatchilikka sabab bo'lgan ijtimoiy omillar bo'yicha multidisipliner tahlil markazlari faoliyat yuritadi (prokuror, politsiya, psixolog, ijtimoiy ishchi birgalikda ishlaydi).

O'zbekiston uchun foydali jihatlar:

mahalliy darajada jinoyat statistikasi asosida xavfli hududlarni aniqlash tizimlarini joriy etish;

politsiya va ta'lim muassasalari o'rtasida bevosita hamkorlik o'rnatish;

jinoyatchilikka oid prognozlarni shakllantirish bo'yicha Kriminologiya tadqiqot instituti tuzilmasida “Jinoyatchilikni prognozlash ofisi”ni ochish.

Shvetsiya jinoyatchilikka qarshi kurashishda inson huquqlari, ijtimoiy tenglik va profilaktik ijtimoiy xizmatlarni asos qilib olgan. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini bartaraf etishda davlat tizimlari bilan bir qatorda, jamiyat va oila bilan ishlashning kuchli modeli mavjud.

Shvetsiya tajribasining asosiy xususiyatlari:

15 yoshgacha bo'lgan bolalar jinoyat sodir etsa, bu jinoyat emas, balki ijtimoiy xavfli holat sifatida ko'riladi.

“Barnombudsmannen” – bolalar huquqlarini himoya qiluvchi mustaqil Ombudsman instituti faoliyat yuritadi.

Jinoyatchilikka moyil bolalar bilan ijtimoiy pedagoglar, psixologlar va “mentor-usta”lar birga ishlaydi. Har bir mahalla yoki tumanda “Javobgarlik markazlari” faoliyat yuritadi – voyaga yetmagan bilan tuzatish ishlari olib boriladi.

O'zbekiston uchun foydali jihatlar:

voyaga yetmaganlar bilan ishlashda “ijtimoiy xavfli” yondashuv asosida individual reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish;

Bolalar huquqlarini mustaqil ravishda himoya qiluvchi organ (Ombudsman) vakolatlarini kuchaytirish;

Yuqoridagi ilg'or xorijiy tajribalarni O'zbe-

kiston milliy ijtimoiy-siyosiy kontekstga moslashtirgan holda jinoyatchilikning oldini olishda sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishi mumkin.

Zamonaviy kriminologiyada jinoyatchilikning oldini olish tizimi nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashning dolzarb masalalarini hal etishga qaratilgan, balki jamiyatda huquqiy ong va xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. O'zbekiston sharoitida jinoyatchilikning oldini olish tizimi samaradorligini oshirish uchun mavjud tizimni takomillashtirish zarur. Bu borada quyidagi ilmiy-amaliy takliflar keltiriladi.

1. Kompleks yondashuv: Profilaktika, prognozlash va ta'sir chorasi.

Kriminologik tadqiqotlar va amaliyotda jinoyatchilikning oldini olishning samarali usuli kompleks yondashuvni qo'llashdir. Bu yondashuvda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan har bir chora jamoa tomonidan integratsiya qilingan bo'lishi kerak. Profilaktika (jinoyatchilikning oldini olish) nafaqat jinoyat sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hududlarda, balki jamiyatning barcha qatlamlarida, ayniqsa, jinoyatchilikka moyil bo'lgan guruhlar o'rtasida amalga oshirilishi kerak. Profilaktika tadbirlari jinoyatni sodir etmasdan oldin, jismoniy va psixologik yordam ko'rsatish, yoshlarni ijtimoiy integratsiya qilish va ularning reabilitatsiyasiga qaratilgan bo'lishi lozim.

Prognozlash esa jinoyatlarning sodir bo'lish ehtimolini oldindan aniqlash imkonini beradi. Bu jarayonda statistik va sun'iy intellekt metodlaridan foydalanish zarur. Masalan, jinoyatchilik yuqori darajada bo'lgan hududlar bo'yicha issiq nuqtalar (Hot Spot Mapping) texnologiyasidan foydalanish, jinoyatlarning sodir bo'lish ehtimolini prognozlash uchun yaxshi vosita bo'ladi. Ushbu metodda jinoyatlarni prognozlashda Big Data texnologiyalari ham keng qo'llanilishi mumkin. Bunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar jinoyatchilikni prognozlashda eng yangi texnologik yondashuvlardan foydalanishlari kerak.

Ta'sir chorasi esa jinoyatchilikning oldini olish uchun zarur bo'lgan barcha kompleks choralarning amalga oshirilishidir. Jinoyatchilikni

kamaytirish va uning oldini olish uchun nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki ijtimoiy xizmatlar, ta'lim va madaniyat sohalaridagi mutaxassislar, mahalla va jamoat tashkilotlari ham birgalikda ishlashlari kerak.

Zamonaviy kriminologiyaning asosiy xususiyatlaridan biri – texnologiyalardan foydalanishdir. Sun'iy intellekt (AI) va Big Data texnologiyalarini jinoyatchilikning oldini olish tizimida qo'llash innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Sun'iy intellekt yordamida jinoyatchilikni prognozlashda avtomatik tizimlar tomonidan katta hajmdagi ma'lumotlar tahlil qilinadi va bu esa jinoyatlarning sodir bo'lish ehtimolini aniqroq belgilashga yordam beradi.

Big Data tahlilida esa jinoyatchilikka doir barcha ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar yig'ilib, tizimda ularni birlashtirish orqali jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. O'zbekistonda zamonaviy kriminologik tadqiqotlarni rivojlantirishda bu texnologiyalarni qo'llash va ilmiy asoslangan tadqiqot metodlarini kengaytirish zarur. Misol uchun, jinoyatlarning ijtimoiy omillarini aniqlashda ijtimoiy-psixologik tahlillar va kriminologik metodlarni birlashtirish, sun'iy intellekt yordamida jinoyatlarning oldini olishning prognozlash metodlarini ishlab chiqish kerak.

Zamonaviy kriminologiyaning yana bir muhim jihati – bu ta'lim va xabardorlikni oshirish. Jinoyatchilikning oldini olish tizimi samaradorligini oshirishda ijtimoiy profilaktika va huquqiy ta'limni targ'ib qilishning o'rnini juda katta. Mahalliy hamda milliy miqyosda jinoyatni oldini olishning samarali mexanizmlarini yaratish uchun kriminologik ta'limni barcha ijtimoiy qatlamlarga yetkazish zarur. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, mahalliy hokimiyat va ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi kerak.

Xususan, ta'lim muassasalarida kriminologiya fani o'qitilishini kengaytirish, yoshlar orasida huquqiy madaniyatni shakllantirish va jinoyatchilikning oldini olish haqida axborot tarqatish dolzarb masalalardandir. Ijtimoiy profiling

orqali maqsadli guruhlarni aniqlab, ular bilan ijtimoiy ishlash orqali jinoyatchilikka moyil bo'lgan individlarga yordam ko'rsatish tizimini yaratish zarur. Shu tarzda, jamiyatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashishda yangi yondashuvlar va innovatsion metodlarni qo'llash imkoniyatlari ortadi.

Zamonaviy kriminologiya fani jinoyatchilikni tahlil qilishda nafaqat an'anaviy yondashuvlarni, balki multidisipliner metodlar, empirik tahlillar, statistik modellar va sun'iy intellekt texnologiyalarini ham qamrab olgan keng ko'lamli ilmiy sohaga aylangan. Ushbu maqolada jinoyatchilikni zamonaviy tadqiq etish va uni oldini olish bo'yicha ilg'or xalqaro yondashuvlar tahlil qilinar ekan, bu boradagi milliy tajribaning kuchli va zaif jihatlari ham aniqlab berildi.

O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi so'nggi yillarda muhim ijtimoiy-siyosiy e'tibor markazida turibdi. Biroq, amaldagi tizimning ba'zi jihatlari (empirik tahlil yetishmovchiligi, zamonaviy texnologiyalar cheklanganligi, ijtimoiy omillar bilan ishlashdagi murakkabliklar) uni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shunday qilib, jinoyatchilikni zamonaviy kriminologik yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilish va unga qarshi kurash tizimini takomillashtirish, nafaqat huquqiy barqarorlik, balki ijtimoiy adolat, fuqarolarning xavfsiz hayoti va huquqiy davlat asoslarining mustahkamlanishi yo'lida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Hart, H. L. A., 'Bentham and Beccaria', Essays on Bentham: Jurisprudence and Political Philosophy (Oxford, 1982; online edn, Oxford Academic, 22 Mar. 2012)
2. Википедию, свободную энциклопедию/[https://ru.wikipedia.org/wiki/ Ломброзо_Чезаре](https://ru.wikipedia.org/wiki/Ломброзо_Чезаре).
3. Википедию, свободную энциклопедию/[https://ru.wikipedia.org/wiki/ Ферри_Энрико](https://ru.wikipedia.org/wiki/Ферри_Энрико).
4. Kansas Journal of Sociology, Volume 6, Number 1 (SPRING, 1970), pp. 37-56 <http://dx.doi.org/10.17161/STR.1808.4704>.
5. [https://research.library.gsu.edu/rds/data-analysis- tools#:~:text= The %20SPSS%20and%20SPSS,for%20analysis%20of%20quantitative%20data](https://research.library.gsu.edu/rds/data-analysis-tools#:~:text=The%20SPSS%20and%20SPSS,for%20analysis%20of%20quantitative%20data).
6. Offender Rehabilitation of Japan // Rehabilitation bureau ministry of justice Japan // book // <http://www.moj.go.jp/EN/index.html> (English).
7. Combating crime together // A national crime prevention programme // Short version of Government Communication 2016/17:126.
8. Programm Polizeiliche Kriminalprävention der Länder und des Bundes (ProPK): Wer sind wir? Was machen wir? // <https://www.polizei-beratung.de/ueber-uns/>.
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Predictive_policing.
10. Leitlinien für Schulsozialarbeit // vorgelegt vom Kooperationsverbund Schulsozialarbeit // Jürgen Ludewig, Berlin.
11. <https://www.city.hikone.lg.jp/eng/Categories/ChildrearingPregnancyChildbirthEarlyChildhood/umaretekara/9845.html>.
12. Predictive Policing Explained // <https://www.brennancenter.org/our-work/research-reports/predictive-policing-explained>.
13. https://en.wikipedia.org/wiki/School_resource_officer.